

.....

XORAZM NAHV MAKTABI AN'ANALARI VA NOSIR MUTARRIZIYNING "RISALATUN FIN -NAHV" ASARI

Raxmonov Azimjon Komilovich

Alfraganus universiteti Filologiya fakulteti

Tillarni o'qitish markazi rahbari

raxmonoviiazimjon@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XII–XIII asrlarda yashab ijod etgan xorazmlik buyuk tilshunos olim Makorim Abdusayyid al-Mutarriziy al-Xorazmiyning hayoti, ilmiy faoliyati va asarlari keng ko'lamda tahlil qilinadi. Tadqiqotda olimning tug'ilishi, tahsil olishi, ilmiy kamoloti, Zamaxshariy ilmiy merosidan ta'sirlanishi hamda o'z davri Xorazm ilmiy muhitidagi o'rni yoritiladi. Mutarriziyning asosiy asarlari, xususan "Misbah fi 'ilmi al-Nahv", "Al-Mug'rib", "Risalatun fin-nahv" va boshqalar tahlil qilinib, ularning arab tilshunosligidagi ahamiyati ko'rsatiladi. Shuningdek, olimning klassik grammatika maktablariga – Basra va Kufa maktablariga munosabati hamda Sibavayh va Jurjoniy ilmiy an'analari davom ettirish borasidagi o'ziga xos metodologik hissi aniqatlanadi.

Kalit so'zlar: Mutarriziy, Xorazm ilmiy maktabi, nahv ilmi, "Risalatun fin-nahv", arab tilshunosligi, Zamaxshariy, Sibavayh, Basra maktabi.

Kirish. Arab tilshunosligi tarixida XII–XIII asrlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu davrda grammatika ilmi bo'lgan nahv yangi metodologik yo'nalishlarda rivojlandi. Murakkab va ko'p jildli asarlar o'rniga, ta'lim maqsadlariga moslangan ixcham va tizimli grammatik qo'llanmalar yaratish tendensiyasi kuchaydi. Aynan shu muhitda Xorazm mintaqasida yetishib chiqqan Nosir Mutarriziy arab tilshunosligiga beqiyos hissa qo'shdi.

Mutarriziyning ilmiy faoliyati o'zbek tilshunosligida hali yetarlicha o'rganilmagan. Xususan, uning hayoti, ilmiy kamoloti va Xorazm ilmiy maktabidagi tutgan o'rni alohida tadqiqot sifatida tahlil qilinmagan. Shu sababli mazkur maqola olimning ilmiy biografiyasini tiklash va uning arab tilshunosligidagi o'rnini aniqlashga bag'ishlangan.

Tadqiqotning dolzarbligi O'zbekistonda arab tili va arabshunoslikka qiziqishning kuchayishi, shuningdek, o'zbek tilshunosligida klassik arab grammatika manbalarini o'rganishning zarurligi bilan belgilanadi. Al-Mutarriziy esa markaziy osiyo va arab ilmiy merosining tutash nuqtasida turadigan buyuk alloma sifatida alohida ilmiy qimmatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-biografik, qiyosiy-tahliliy va matniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Yaqut al-Hamaviyning "Mu'jam al-Buldan" va "Mu'jam al-Udabo", Ibn Xallikonning "Vafayat al-A'yan", as-Suyutiyning "Bug'yat al-Vu'at", Brockelmannning "Geschichte der arabischen Litteratur" asarlari hamda al-Mutarriziyning o'z asarlari, birinchi navbatda "Risalatun fin-nahv" nashri tanlandi. O'zbek va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari ham kompleks tarzda o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Makorim Abdusayyid al-Mutarriziy al-Xorazmiy hijriy 538-yilda, milodiy 1144-yilda Xorazmning poytaxti Jurjoniya (hozirgi Ko'hna Urganch) shahrida tavallud topgan. Uning to'liq ismi manbalarda turlicha keltirilsa-da, asosiy shakl quyidagicha: Abu al-Fath Burhoniddin Nosir ibn Abi al-Makorim Abdusayyid al-Mutarriziy al-Xorazmiy.

"Al-Mutarriziy" laqabining kelib chiqishi haqida Yaqut al-Hamaviy ma'lumot beradi: arabcha طَرَز – "tarraza" fe'lidan olingan bu laqab "kashtado'zlik qilmoq, naqsh tikmoq" ma'nolarini anglatadi. Bu laqab olimning otasi yoki ajdodlaridan biriga kasbi sababli berilgan va oilaga meros bo'lib qolgan. "Al-Xorazmiy" nisbasi esa uning Xorazm mintaqasidan ekanligini, shu bilan birga u mansub bo'lgan ilmiy an'anani ham ifoda etadi.

Olimning ilmiy kamolotida ikki asosiy omil hal qiluvchi rol o'ynagan. Birinchisi – otasi Abdusayyidning tarbiyasi. Manbalar ko'rsatishicha, al-Mutarriziy dastlabki ilmlarni, xususan fiqhni, bevosita otasidan o'rgangan. Bu o'rta asrlar Sharq ilmiy an'anasiga xos holat edi. Ikkinchisi – Mahmud Zamaxshariy (1075–1144) ilmiy merosining ta'siri. Zamaxshariy vafot etgan yil al-Mutarriziy tug'ilgan yil bilan bir xil bo'lishi tasodif emas – al-Mutarriziy Zamaxshariyning buyuk shogirdlaridan o'rganib, uning an'alarini davom ettirgan. Shu sababli unga "Xalifat az-Zamaxshariy" – Zamaxshariyning merosxo'ri – sharaflil laqabi berilgan.

Al-Mutarriziy milodiy 1204-yilda oltmish yoshida Makka shahriga haj safariga otlangan va yo'l ustida Bag'dodga kelib, yirik olimlar bilan ilmiy munozaralarda ishtirok

etgan. U milodiy 1213-yilda, hijriy 610-yilda Jurjoniya vafot etib, 69 yillik umrini to'liq ilm-fanga bag'ishlagan.

XII asr Xorazmi islom olamida ilm-fan va madaniyatning yuksalish davri edi. Xorazmshohlar sulolasining homiylik siyosati tufayli shaharlar ilmiy markazlarga aylangan, madrasalar barpo etilgan va olimlar saroyda izzat bilan qabul qilingan. Bu muhitda arab tili, fors va turk tillaridan farqli o'laroq, ilmiy asarlar tili sifatida ustuvor mavqega ega bo'lgan.

Zamaxshariyning boy ilmiy merosi – tafsir, lug'atshunoslik va grammatika sohalaridagi fundamental asarlari – Xorazm ilmiy maktabining poydevorini mustahkamlagan. Al-Mutarriziy aynan shu maktabning eng yorqin namoyandalardan biri sifatida shakllanib, Zamaxshariy metodologiyasini yanada rivojlantirdi. Nemis sharqshunosi Brockelmann o'zining arab adabiyoti tarixiga bag'ishlangan asarida al-Mutarriziy Xorazm ilmiy maktabining muhim vakili sifatida alohida qayd etgan.

Bartold o'zining Xorazm tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida bu mintaqaning XII asr ilmiy hayotidagi o'rni haqida maxsus to'xtalib, Xorazmning nafaqat siyosiy, balki madaniy jihatdan ham kuchli mintaqaga aylanganini ta'kidlagan. Aynan shu geosiyosiy va madaniy muhit al-Mutarriziyning ilmiy shaxsiyatini shakllantirdi.

Al-Mutarriziy o'ndan ortiq asarlar muallifi bo'lib, ular tilshunoslik, lug'atshunoslik, balog'at va fiqh sohalarini qamrab oladi:

“المصباح في علم النحو” – “Al-Misbah fi ‘ilmi al-Nahv” – arab grammatikasi bo'yicha asosiy asari. Ko'p asrlar davomida madrasalarda darslik sifatida ishlatilgan va bugungi kunda ham ilmiy qimmatini yo'qotmagan.

“المغرب في ترتيب المعرب” – “Al-Mug'rib fi tartib al-Mu'rib” – lug'atshunoslik asari, xususan Hanafiy fiqh maktabi terminologiyasini izohlashga bag'ishlangan. Bu asarning eng qadimiy uchta qo'lyozma nusxasi Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanmoqda.

“الإقناع لما حوى تحت القناع” – “Al-Iqna” – arab lug'atiga oid asar. Muallif bu asarni o'z o'g'li uchun yozib bergan.

“زهر الربيع في علم البديع” – “Zahr al-Rabi” – balog'at ilmiga oid asar.

“الإيضاح في شرح مقامات الحريري” – “Al-Izoh” – al-Haririyaning mashhur “Maqamat” asariga yozilgan sharh.

Bu asarlar majmui al-Mutarriziyning faqat grammatik olim emas, balki lugʻatshunos, adabiyotshunos va faqih sifatida ham yetuk alloma boʻlganligini koʻrsatadi. As-Suyutiy “Bugʻyat al-Vuʻat” asarida al-Mutarriziyning nahv va lugʻat olimlarining yuqori tabaqasiga kiritgan, Ibn Xallikon esa uni “oʻz davrining eng yirik grammatik olimlaridan biri” deb taʼriflagan.

Klassik arab grammatikasida Basra va Kufa maktablari uzoq asrlar davomida raqobat qildi. Basra maktabi qiyosiy-mantiqiy yondashuvni maʼqul koʻrsa, Kufa maktabi tilning tarixiy va anʼanaviy qoʻllanilishiga urgʻu berdi. Al-Mutarriziy bu ikki maktabning eng yaxshi jihatlarini sintez qilgan holda, oʻziga xos mustaqil yoʻnalishni shakllantirdi.

Sibavayh (vaf. 796) ning الكتاب – “Al-Kitab” asari arab grammatikasining birinchi sistemali asari sifatida al-Mutarriziy uchun asosiy manba boʻlib xizmat qilgan. Al-Mutarriziy Sibavayh anʼanasini davom ettirib, uning metodologiyasini soddalashtirgan va taʼlim maqsadlariga moslashtirgan. Abd al-Qohir al-Jurjoni (vaf. 1078) ning “Al-Avamil al-miʼa” asari esa grammatik tushunchalarni ixcham bayon etishda al-Mutarriziy uchun metodologik namuna boʻldi. Shunga qaramay, al-Mutarriziy bu ikki olimdan farqli oʻlaroq, grammatik taʼsir bilan birga semantik maʼnoga ham katta eʼtibor qaratdi va bu uning oʻziga xos metodologik hissasi boʻldi.

“Risalatun fin-nah” asarida Mutarriziy Jurjoni (vaf. 1078) ning “Al-Avamil” asariga ochiq murojaat qiladi: “Omillar uch toifaga boʻlinadi: yordamchi soʻzlar, ismlar va feʼllar. Imom muhaqqiqning “al-Miʼa” asarida taʼkidlaganicha, ularning umumiy soni 91 tani tashkil qiladi.” Bu iqtibos allomaning oʻzidan oldingi anʼanani hurmat bilan davom ettirgani va yangi metodologik asosda rivojlantirgani dalolatidir.

Xulosa. Al-Mutarriziy (1144–1213) arab tilshunosligining XII–XIII asr rivojida muhim rol oʻynagan buyuk alloma boʻlib, uning ilmiy merosi bir necha jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, u Xorazm ilmiy maktabining eng yirik vakili sifatida Zamaxshariy anʼanalarini davom ettirib, ularni yangi metodologik asosda rivojlantirdi. Ikkinchidan, uning “Risalatun fin-nah” asari arab grammatikasini soddalashtirish va taʼlim maqsadlariga moslashtirish yoʻlida erishilgan eng muvaffaqiyatli natija sifatida baholanadi. Uchinchidan, uning asarlari – nafaqat grammatik, balki lugʻatshunoslik, balogʻat va fiqhga oid asarlari – oʻrta asrlar Sharq ilmiy merosining, xususan, Xorazm nahv maktabi anʼanalari muhim qismini tashkil etadi.

Tadqiqot natijasida al-Mutarriziyning Xorazm ilmiy maktabidagi oʻrni nafaqat grammatika sohasida, balki keng ilmiy tilshunoslik sohalarida ham koʻrsatildi. Uning bugungi kunda ham oʻzbek arabshunosligida muhim ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin, chunki ular murakkab grammatik qoidalarni sodda va tushunarli tarzda bayon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Muṭṭarizi, N. A. D. (1979). *Al-Mughrib fi Tartīb al-Mu ‘rib*. Aleppo: Maktabat Osama Ibn Zayd.
2. Komilovich, R. A. (2026). NOSIR AL-MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA SO‘Z TURKUMLARI TASNIFI VA ULARNING LINGVISTIK MEZONLARI. *Innovation and development*, 4(5), 339-343.
3. Рахмонов, А. К. (2026). ЛЕКСИКОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ АЛ-МУТАРРИЗИЯ. «Qazaqtany», (29), 162-171.
4. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O ‘QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
5. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРҲОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
6. Jo‘Rayeva, M. (2025). XORIJIY TILLARNI O ‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:(ARAB TILI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 222-224.
7. Jo‘rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
8. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NA‘T QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.
9. Fatilloev, M. (2026). The Structure and Composition of Mu‘jam Al-Udabā’. *Oscar Journal of AJPS*, 6(02), 163-168.
10. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she’riyatda Bobur gʻazallarining poetik

xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.

11. Jurayeva, N. G. (2022). O 'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BAYT POETIKASI TUSHUNCHASINING TUTGAN O 'RNI VA TIPALOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 729-733.

12. Isoxonovich, X. M. (2025). AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI. *Alfraganus Universiteti Konferensiya Materiallari*, 5(1), 883-890.

13. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 35-48.

14. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.

15. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.